



ABOUT MURUVVAT HOUSES

Qodirova Mamlakat Mominovna

Karshi State University, Department of History of Uzbekistan,
Candidate of History, Associate Professor

Abstract

In this article, comments are made about the importance of human relationships for society, kindness and generosity glorify a person. Opinions are given on the establishment of a number of charitable homes in Uzbekistan.

Keywords: persons with disabilities, kindness, generosity, mental retardation, "Muruvvat", "Generosity" houses, Foundation, dignity.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday fikrlarni aytib o`tdilar: "Yer yuzida juda kamdan kam davlat va millat bunday yuksak insoniy fazilatlar bilan g`ururlanishi mumkin. Vaqt o`tgan sari Shomahmudovlar oilasi ko`rsatgan bu qahramonlikning ahamiyati va qadri tobora oshib bormoqda". Tarix-maktab, o`tmish esa ibrat. Insoniyatning ming yilliklar orasida anglagan haqiqatlari shunday. Bugun Yangi O`zbekiston qurayotgan jamiyat insonning qadr-qimmati ulug` darajada ekanligini, saxovat va adolat tarozisi teng ekanligini isbotlab kelmoqda. "Muruvvat" bolalar internat uylari O`zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlar bor bo`lgan, 4 yoshdan 18 yoshgacha nogironligi bo`lgan bolalar uchun tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni ko`rsatadigan davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi. Og`ir darajadagi aqliy zaiflik, gemiparez, paraparez va tetrapez asoratlari bo`lgan mo`tdil darajadagi aqliy zaiflik serebral falaji, intellektning og`ir buzilishiga olib kelgan shizofreniya, mo`tdil darajadagi aqliy zaiflikka olib kelgan epilepsiya, bosh miya shikastlanishi oqibatidagi mo`tdil darajadagi aqliy zaiflik, shuningdek, bosh miyaning xromasoma kasalligi yoki anomaliyasi tashxisi qo`yilgan bemorlar Respublika Muruvvat nogironlar uchun internat uylarida davolanishadi. O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo`mitasi rasmiy saytidagi ma`lumotga ko`ra, 2016-yildan Respublikada 33 ta Muruvvat uylari faoliyat yuritayotgan bo`lib, ularda 7745 nafar bemor davolanib kelmoqda. Ularning ko`pchiligini yaqinlari tirik bo`lishiga qaramay, biror marta ko`rishga kelmagan, bemorlar Muruvvat uyi xodimlarini "opa", "oyi", "xola" deb chaqirish bilan sog`inchini yengishga harakat qilishadi. Bu esa muruvvat, mehr inson uchun juda aziz tuyg`uligini ko`rsatadi. "Muruvvat" bolalar internat uylariga yuborish, shuningdek, biridan ikkinchisiga o`tkazish Agentlikning Vasiylikka



olinuvchilarni tibbiy-ijtimoiy muassasalarga yuborish shuningdek, biridan ikkinchisiga o'tkazish bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi maxsus komissiyasi qaroriga muvofiq hududiy boshqarma boshlig'ining buyrug'i asosida amalga oshiriladi. Nogironligi bo'lgan bolalarni nogironligi bo'lgan bolalar uchun kunduzgi parvarishlash guruhiga qabul qilishda ota-onalar (vasiylar yoki homiylar, farzandlikka oluvchilar) va "Muruvvat" bolalar internat uyi direktori o'rtasida beg'araz shartnoma tuziladi, unda tomonlarning huquq va majburiyatlari ko'rsatiladi. "Muruvvat" internat uylari faoliyati Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish boshqarmalari tomonidan muvofiqlashtiriladi. "Muruvvat" uyida bolalar uchun ularning aqliy va jismoniy rivojlanishiga keyinchalik ijobiy ta'sir ko'rsatadigan ruhiy reabilitatsion mashg'ulotlar o'tkaziladi. U yerda uqalash va sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar olib boriladi. Tarbiyalanuvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqib musiqiy terapiya, tasviriy san'at, ertak va gul parvarishlash bilan bog'liq terapiyalar tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 455-son qarori bilan 2017-yil 3-iyul kuni "Muruvvat" va "Saxovat" internat uylarida yashaydigan nogironligi bo'lgan shaxslar va keksalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qilindi. Bu qaror o'zbek xalqining saxovat-peshaligini yanada isbotladi. "Muruvvat" va "Saxovat" internat uylari faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun Jamg'arma tashkil etildi. Jamg'arma mablag'lari xayriya ehsonlari, texnik ko'maklashish mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga shakllantirildi. Jamg'arma mablag'laridan "Muruvvat" va "Saxovat" internat uylarini, ijtimoiy, tibbiy va madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yashash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, har xil madaniy tadbirlar, tanlovlar, sport musobaqalari, seminarlar tashkil etish va o'tkazish hamda nogironligi bo'lgan shaxslar va keksalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha boshqa maqsadlar uchun foydalanishi qabul qilindi. "Muruvvat" uylari faoliyatini jadal ta'minlash uchun Jamg'armaga xayriya ehsonlar tashkil etiladi. Nogironligi bo'lgan shaxslar va keksalar uchun har xil madaniy va xayriya tadbirlari: xayriya konsertlari, respublikaning madaniy-tarixiy diqqatga sazovor joylariga ekskursiyalar, teatrlashtirilgan va sirk tomoshalari, madaniyat va san'atning mashhur namoyondalari bilan uchrashuvlar, tanlovlar va sport musobaqalari tayyorlanadi. Bu bilan muruvvatga muhtoj qalblarni quvontirishadi, hayotga muhabbat bilan yashashga, ertangi kunga nisbatan ishonch uyg'otishga sabab bo'lishadi. "Muruvvat" uylarida nogironligi bo'lgan shaxslar va keksalarga tibbiy-ijtimoiy yordam



ko'rsatishning samarali va zamonaviy talablarga mos , javob beradigan tizimini yaratish asosiy o'rinda turadi. Xulosa qilib aytganda , O'zbekistonda mehr-oqibat tuyg'usi, inson qadr-qimmatini barcha boylıklardan ustun turadi. Muruvvat nafaqat insonni , balki butun jamiyatni ulug'laydi, yuksak maralarga yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Muruvvat" va "Saxovat" uylari to'g'risidagi 455-son qaror. Toshkent- 2017.
2. Mehr-muruvvat insonni ulug'laydi. U. Alimov. Toshkent. 2020.
3. Ikramova, M. (2022). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF USING MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND METHODS IN TRAINING FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGY. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, 3(9), 1-4.
4. Ikramova, M. K. (2022). PECULIARITIES OF USING DIGITIZED EDUCATIONAL RESOURCES IN " TECHNOLOGY" CLASSES. *Open Access Repository*, 9(11), 208-212.
5. Ikramova, M. K. (2022). USE OF DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES IN " TECHNOLOGY" CLASSES. *Open Access Repository*, 8(11), 116-120.
6. Isaqova, Z., Ikramova, M., & Abdusamatova, M. (2021). TO EDUCATE STUDENTS TO BE SMART, POLITE, WELL-MANNERED, INTELLIGENT AND PHYSICALLY HEALTHY IN THE PROCESS OF LABOR EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 868-870.
7. Mukhtorovna, Y. F. (2022). LEARNING THE TECHNOLOGY OF COLLECTIVE CREATIVE WORK IN PRACTICE. *Open Access Repository*, 9(11), 175-179.
8. Mukhtorovna, Y. F. (2022). TEACHING OF TECHNOLOGY USING INTERACTIVE METHODS. *Open Access Repository*, 9(11), 169-174.
9. Muxtorovna, Y. F. (2022). MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARGA BO'SH VAQTLARIDA QIZIQISHLARI BO'YICHA SHUG'ULLANTIRISH. *PEDAGOGS jurnali*, 4(1), 290-294.
10. Olimov, B. U., & Olimova, D. B. (2020). ORGANIZATION OF MENTAL ARITHMETIC COURSES FOR PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Theoretical & Applied Science*, (4), 943-946.
11. Olimov, B. U., & Olimova, D. B. (2020). ORGANIZATION OF MENTAL ARITHMETICS COURSES FOR EARLY CLASS STUDENTS IN SCHOOLS. *Theoretical & Applied Science*, (2), 522-524.
12. Olimov, B. U., & Olimova, D. B. (2020). The effectiveness of mental arithmetic courses in pre-school education. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 02 (82), 525-527.